

XOJA UBBON IBN USMON IBN AFFON ZIYORATGOHI

*Rajabov Oybek Iskandarovich
Buxoro davlat universiteti*

Buxoro vohasining tarixiy go'shalaridan biri hisoblangan Romitan qadimiylari, salohiyatlari hudud bo'lib, uning shakllanish tarixi Afsonaviy hukmdor Afrosiyobga borib taqaladi. Ushbu diyor o'zining ko'p asrlik tarixida ulug' avliyolari Xoja Ubon, Xoja Za'faron, Hazrat Bobo Laqlaqag'iy-Xoja Hazrat Niyoz Xorazmiy, Xoja Ali Romitaniy, Xoja Boboyi Samosiy, Hakim Mulla Mir hazratlari, shuningdek, Choriqulboy kabi saxovatpesha insonlari bilan mashhurdir.

Xoja Ubon Ibn Usmon ziyoratgohi Buxoro shahrining shimoli-g'arbida 40 kilometrcha narida qum tepaliklar orasida joylashgan manzil bo'lib, bu ziyoratgoh, vohada ilk islom dini kirib kelgan davrdan buyon mavjud bo'lgan muborak qadamjolardan biri hisoblanib, maskanda XIV asrda ulkan tarixiy inshoot-chashmaxona bunyod etilgan. Xoja Ubon Ibn Usmon Ibn Affon VII asrning oxiri va VIII asr boshlarida yashagan, tobein, faqih, muhaddis, qiroat sohibi, valiyulloh bo'lib, u kishiga Alloh taolo turli kasalliklarni davolash karomatini bergen. Xoja Ubon Ibn Usmon Ibn Affon 644-656 yillarda xalifalik taxtiga o'tirgan Usmon Ibn Affon "Choriyor xalifa"lardan uchinchisining o'g'li sanaladi.

Muhammad Narshaxiyning 943-944 yillarda yozilgan "Buxoro tarixi" asarida Sa'id ibn Usmon Ibn Affon (xalifa Usmon ibn Affonning boshqa bir o'g'li) xalifalik tomonidan 676 yili Xuroson amiri etib tayinlangani hamda u Jayhun daryosidan o'tib Buxoroga kelgani bitilgan. Xoja Ubon Ibn Usmon Ibn Affon haqida XV asrda yashagan Ahmad ibn Mahmudning "Kitobi nazmi Mullozoda" asarida: Qabri Ubon, ki Ibn Usmon ast, Manbai xush fayzi g'affaron ast, ya'ni: "Xoja Ubon Ibn Usmonning qabri fayzli joy hisoblanadi", - deyiladi.

Xoja Ubon Ibn Usmon Ibn Affon haqida Mir Muhammad Buxoriyning XVI asrda yozilgan "Ubaydullanova", Mulla Muhammad Obidjonning "Tuhfatul obidin", V.Shishkinning "Varaxsha", S.Ayniyning "Esdaliklar", B.Mashrab, A.Fitrat, S.Salim Buxoriy asarlarida boy ilmiy ma'lumotlar keltirilgan.

Xoja Ubon qadamjosining 1937 yilda tushirilgan fotonusxalari topildi. Maqbaraga kiraverishning o‘ng tomonida, hozirgi kunda yangidan qurilgan toshquduq ustida qadimda to‘rt gumbazli obi g‘ishtdan qilingan chashmaxona bo‘lgan. Chashma ichida tosh quduq bo‘lib, 2022 metr chuqurlikdan suv olingan. Chashmaxona XIV asrda mohir ustalarning mehnati evaziga juda ixcham, yuksak mahorat va ulug‘vorlik bilan bunyod etilgan. Afsuski u imoratlar hozirda saqlanib qolinmagan. Xoja Ubon maqbarasi, chashmaxona, xonaqoh, tug‘ va sag‘analar o‘tgan asrning 60 yillari boshida minalar bilan portlatib yuborilgan. Avliyoning boshlari uchib ketib, ko‘milgan joyda 2008-2010 yillarda eski yog‘ochdan qilingan maqbara va sag‘ana yangidan qurildi (bu ishlarda bosh - qosh bo‘lgan ziyoratgohning sobiq rahbari (rahmatli) Abdumannon otaning ham xizmatlari beqiyos).

Bir necha asrlar oldin Zarafshon daryosi irmog‘i tufayli Xoja Ubon hamda uning atrofidagi Xo‘jaqul, Xoja Porsoyak, Xoja Za‘faron, Qizilqir, Qorovultepa, Bo‘rontepa, Shoyusuftepa, Subboqtepa, Kampirak, Shirinquduq, Siminchtepa, Turaxshotepa kabilar vohadagi “Ming shahar” deb atalgan qadimiy shahriston, qal‘a va istehkomlarning shimolig‘arbidagi obod joylarning tarkibiy qismi hisoblangan. Butun vohani devor bilan o‘rab olgan Kampirakdevor xarobalari Jondor tumani Yakkatut temir yo‘l bekti, To‘dako‘l suv ombori atrofi, Kogon temir yo‘l bekti, Qiziltepa temir yo‘l bekti, Qiziltepa tumani Malikcho‘l hududi, Tavois va Hazora qishloqlari, Vobkent tumani Elach qishlog‘i, Shofirkon tumani Vardonze qo‘rg‘onining shimoliy tomoni, Romitan tumani g‘arbida joylashgan Subbuqtepa, Bo‘rontepa tepaliklari atrofi, shuningdek, Xoja Ubbondan g‘arbga tomon cho‘l qa‘ri hududlaridan topilgan. Keyinroq Zarafshon suvining cho‘llarga yetib bormagani sababli bu hududdagi obod makonlar cho‘l-u-biyobonlarga aylanib ketgan.

Xoja Ubon ziyoratgohi joylashgan yassi tepalik qadimgi qishloqlardan birining xarobasi bo‘lib, u Poykanddan Xorazmning qadimgi paytaxti Kat shahriga boradigan katta karvon yo‘li ustida joylashgan. Shu sabab Xoja Ubon shu atrof

qishloq va aholi yashaydigan maskanlarning eng yiriklaridan biri bo‘lgan. Asrlar davomida Zarafshon daryosi yuqori oqimi bo‘ylab sug‘oriladigan maydonlarning kengayib borishi oqibatida uning adog‘ida joylashgan Xurmitan, Xoja Za‘faron, Xoja Ubon atroflariga suv bormay, XI asr oxiri-XII asr boshlarida bu qadimgi o‘lka asta-sekin suvsizlikdan qurib, bepoyon Qizilqumga tutashib ketadi. Xuddi shu davrda suv tanqisligi oqibatida Poykand shahri ham inqirozga yuz tutadi. Natijada Xoja Ubon raboti orqali Poykandga o‘tadigan karvon yo‘li ham asta-sekin barham topadi. Hozirgi kunda kelib Xoja Ubon ziyoratgohi alohida majmua sifatida shakllantirilib, unda kirish darvozasi, maqbara, tosh quduq, mehmonxona hamda ayvon bitta majmuaga birlashtirilgan. Majmuada davolanishga kelganlar uchun alohida yotoqxona bunyod etilgan hamda bu ishlar hozirgi kungacha yana davom etib kelinmoqda. Qadamjoda ziyorat qilish, rasm-rusumlar, xayriya ishlarini tashkil etuvchilar uchun alohida joy ajratib qo‘yilgan. Islom olamida ulug‘ avliyolarni ulug‘lash va uning qabrini ziyorat qilish orqali xalq o‘z orzuuumidlari, diniy e’tiqodlarini mustahkamlash, ulug‘ insonlarning qabrlariga ziyorat qilish orqali tasalli olish odat tusiga kirgan.

Ulug‘ avliyo sharafiga Xoja Ubon jamoatchilik xayriya jamg‘armasi tashkil etilib, davlat ro‘yxatidan o‘tkazilib, hozirgi kunda doimiy tarzda faoliyat olib bormoqda. Majmuaning bosh loyihasi viloyatning ulug‘ me’mori, tajribali inson Mahmud Qosimovich Ahmedov tomonlaridan yurtimizda uzoq asrlar davomida shakllangan milliy-tarixiy an’analarimizga mos holda tayyorlanib amalga oshirildi. Maskanning bosh imom xatibi Sunnat Hojining samarali mehnatlari evaziga xalqimiz orzu-havasidagi majmua bunyod etilmoqda.

Ulug‘ qadamjoni obod qilishdan asl maqsad o‘z tariximizni qayta tiklash va uni teranroq anglash, yoshlarimiz ma‘naviyatini yanada yuksaltirish yo‘lidagi bir sa‘y-harakat bo‘lib, ming yillardan qon-qonimizga singib ketgan dinu-diyonatni, urf-odat, ezgu amallarni davom ettirish, xalqning muqaddas burchi ekanligini unutmasligimiz lozim. Muhtaram

Prezidentimizning “Xotirasi bo‘lмаган, tarixini unutган, о‘з аждодларининг qadriga yetmayдigan millatning istiqboli yo‘q”, - deb ta‘kidlaganlari bejiz emas, albatta. Chunki tarix xalqimiz ma‘naviyatining asosi sanalib, uni avaylab-asrashga har birimiz mas’улмиз.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Темиров, Ф., & Халикова, Н. (2021). Бухоро амирлигига ташқи сиёсат ва дипломатиянинг ривожланиши тарихидан. *Scientific progress*, 2(1), 1276-1282.
2. Темиров, Ф., & Умаров, Б. (2021). Бухоро амирликда оила, никоҳ ва мерос хуқуқининг амалда қўлланиши. *Scientific progress*, 2(1), 1201-1207.
3. Temirov, F. Of the journalistic work of Sadreddin Ayni Concerning Issues of Bukhara history. *Irish Interdisciplinary of Science & Research (IIJSR) Vol*, 6, 12-17.
4. Rajabov, O. (2021). “Тарихи Муллоҳозода” асари—Бухоро муқаддас қадамжолари ва зиёратгоҳлари тарихи бўйича муҳим манба. *Центр научных публикаций (buxdu. uz)*, 8(8).
5. Rajabov, O. (2021). Chor Bakr tarixiy me’moriy majmuasi xususida. *Центр научных публикаций (buxdu. uz)*, 8(8).
6. Rajabov, O. I. (2021). Buxorodagi ayrim muqaddas qadamjo-qal’alar xususida. *Scientific progress*, 1(6), 1162-1168.
7. Iskandarovich, R. O. (2022). Historical Architectural Complex of the Chor (Pers. Four) Bakr Ensemble. *Telematique*, 6886-6890.
8. Болтаев, А. X. (2018). Бухоро шаҳри 11 дарвозасининг тарихи ва тақдири (ўлкашунос ТФ Гелаҳ тадқиқотларида). Тюркоязычные страны. Республиканский научно-методический и познавательный журнал. *Алмати*, 2, 6-8.
9. Болтаев, А. X. (2019). Исследование С. Юренева в мечети Калян. *Вестник археологии, антропологии и этнографии*, (1 (44)), 45-53.
10. Naimov, I. N. (2021). A coverage of the activities of the Mangitic Emirs in the works of Ahmad Donish. *International Journal on Integrated Education*, 4(5), 36-45.
11. Ismat, N. (2021). “MEYORU-T-TADOYYUN” AS RELIGIOUS AND MORAL SOURCE. *The Light of Islam*, 2021(2), 46-54.
12. Klichev, O. (2020). Scholarships of Emirs of Bukhara. *Oriente moderno*, 100(1), 57-74.
13. Кличев, О. А. (2020). Особенности приема посольств Российской Империи в Бухарском Эмирате во второй половине XIX в. *Россия и мусульманский мир*, (1 (315)), 99-113.
14. Klichev, O. A. (2016). Discourse to the history of political agency in the emirate of Bukhara. *Europaische Fachhochschule*, (8), 14-15.
15. Utayeva, F. (2021). BUXORO TO’QIMACHILIK SANOATI QURILISHI TARIXINING MATBUOTDA YORITILISHI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 7(7).
16. Utayeva, F., & Safarov, B. (2023). История строительства и производственная деятельность Бухарского Прядильного-текстильного комбината. *Farg ‘ona davlat universiteti ilmiy jurnali*, (1), 303-307.
17. Бобоҷонова, Ф. Ҳ. (2021). БУХОРО МАДРАСАЛАРИ МАҶНАВИЯТ ДУРДОНASI. *Scientific progress*, 2(1), 362-366.
18. Бобоҷонова, Ф. Ҳ. (2022). БУХОРО АМИРЛИГИДА ТАЪЛИМ ТИЗИМИ МАСАЛАЛАРИ. *Academic research in educational sciences*, 3(NUU Conference 2), 1024-1028.

19. Beshimov, M. (2021). Mang'itlar davrida Buxoroda madaniy hayot. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 7(7).
20. Beshimov, M. (2023). THE HISTORY OF BUKHARA OF THE DOCUMENTS OF THE QUSHBEGI ARCHIVE IMPORTANCE IN LEARNING. *Modern Science and Research*, 2(7), 305-309.
21. SHAROPOV, D. (2022). ПРАВИТЕЛЬ МАНГЫТОВ ЭМИР ХАЙДАР. *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 2(2), 101-104.
22. Sharopov, D. (2021). ABDURAZZOQ SAMARQANDIYNING “MATLAI SA'DAYN VA MAJMAI BAHRAYN” ASARINING O'RGANILISH TARIXI. *Scientific progress*, 2(1), 358-361.
23. Nosirov, S. (2022). Sadreddin Ayniy asarlari buxoro inqilobini tarixini o 'rganuvchi manba sifatida. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 26(26).
24. Sherzod O'ktam o'g, N., & Komilovich, B. M. (2023). Illumination of socio-economic issues in Turkestan in the works of Professor Polat Soliyev. *Telematique*, 22(01), 1278-1282.
25. Nosirov, S. (2023). TARIXCHI OLIM PO 'LAT SOLIEV IJODIDA TURKISTON TARIXI MASALALARINING YORITILISHI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 29(29).
26. Элова, Д. Д. (2024). Туркистон тарақкийпарварларининг янги техникалар ва уларнинг ўлка бўйлаб тарқалишидаги роли. *Journal of Research in Innovative Teaching and Inclusive Learning*, 2(1), 9-12.
27. Элова, Д. (2022). История Появления Автомобилей И Тракторов В Бухаре В Начале Xx Века. *Miasto Przyszlosci*, 29, 357-358.
28. Umarov, B. B. (2022). Science, education and culture during the rule of the Somanians. *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 2(6), 46-49.
29. Umarov, B. (2023). ARAB MANBALARI DA BUXORO SHAHRI TAVSIFI (“KITOB AL-MASOLIK VAL MAMALIK” MISOLIDA). *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 38(38).
30. Umarov, B. (2023). ABU BAKR NARSHAXIY ASARIDA BUXORO SHAHRI TAVSIFI. *Farg'onadavlat universiteti*, (2), 166-166.
31. Umarov B. NA KISLYAKOV TADQIQOTLARIDA BUXORO AMIRLIGIDAGI FEODAL VA QISHLOQ XO'JALIGI MUNOSABATLARINING YORITILISHI // ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 6. – №. 6.